



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



4. Kollaboratsiya – guruhli ish tashkil qilish, qayta aloqa va hamkorlik, loyihibar ustida ishslash, hamkorlik, guruh ishiga hissa qo'shish, tashabbus kabilardir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, kompyuter texnologiyalari, shu bilan bir qatorda multimedia sohasi ham rivojlanayotgan hozirgi kunda darslarda animatsiyadan foydalanish qanchalik to'g'ri va samarali ekanini yuqoridagi natijalardan ham bilib olish qiyin emas, albatta. Darslarda animatsion roliklardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jalb etish, kichik sinflarda darsni qiziqarli o'tish hamda eng asosiysi, o'rgatayotgan mavzularni yanada yaxshiroq o'zlashtirishga zamin yaratadi. To'g'ri, natijalar o'rtacha bo'lishi mumkin, ammo har darsda multimediadan foydalanib dars o'tish o'qituvchiga zamonaviylikni, ya'ni IT texnologiyalar bilan darsni yanada qiziqarlilik darajasini oshirsa, o'quvchilarda darsga qiziqish va har bir mavzuni tezroq va mustahkamroq o'zlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birgalikda ta'lim jarayonidagi bir qator yangiliklarga ham hissa qo'shadi. Biz o'tkazgan tajriba ham aynan ta'lim jarayoni rivoji uchun yana bir qadam bo'lib xizmat qiladi, deya olamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Muhammedova S., Abdullayeva M. va b. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 187 b.
3. Kuldasheva S.X. Ona tili darslarining yangi mavzuni tushuntirish bosqichlarida multimedia vositalaridan foydalanish. – O'zbekiston: Til va madaniyat, 86-93-b.
4. Ibragimov R.Q. O'quv animatsiyasi undan foydalanishning zamonaviy ta'lim usullari. Inter education & Global study 2024. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
5. Abdullayeva N.K., Jumaniyazova N.B. Ona tili va adabiyot o'qitishda multimediali ta'lim dasturlaridan foydalanish. Journal of integrated education and research; October, 2022.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/ZOXJ1814

#### **TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

**Sarimsakova Nigora Raxmatovna**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti*  
sarimsakovan9@gmail.com+998935897525

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Ilmiy-ommabop matnning asosiy mazmuniy tarkibiy qismlari hamda uni o'rgatishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar ko'rsatib o'tiladi. Maqolada talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini samarali rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-ommabop matn, emotsionallik, obrazlilik, kommunikativlik, metod, interaktiv metodlar, matn tahriri va tahlili.



**Annotation:** This article analyzes the pedagogical foundations of developing students' skills in creating popular science texts. The main content components of popular science texts, as well as the methodological approaches used in teaching them, are presented. The article provides recommendations for the effective development of popular science writing skills in higher education.

**Keywords:** popular science text, emotionality, imagery, communicativeness, method, interactive methods, text editing and analysis.

Hozirgi kunda ilmiy bilimlarning ommaviylashuvi va keng tarqalishi jarayoni tobora kuchaymoqda. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida ilmiy ma'lumotlar global maydonda tez va keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Shu bilan birga, ilmiy ma'lumotlarni to'g'ri, aniq va tushunarli shaklda ommaga taqdim etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylanmoqda.

Ilmiy-ommabop matn yuzasidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalgalashirilgan. Xususan, H.Nusratova "Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi kitobidagi ilmiy-ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari"<sup>144</sup> nomli maqolasida boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi kitoblaridagi ilmiy-ommabop matn va maqolalar haqida nazariy ma'lumot, ilmiy mushohadalar bayon qilinadi, ham o'quvchida badiiy-estetik zavq uyg'otishi o'z mohiyat e'tibori bilan o'quvchi ta'lim-tarbiyasiga xizmat qilishi haqida fikr yuritiladi. F.Norbekova "Ilmiy-ommabop film matnining janr-stilisyik xususiyatlari"<sup>145</sup> nomli maqolasida ilmiy-ommabop film va ko'rsatuвлar matni stilistik jihatdan ko'rib chiqiladi va tahlilga tortiladi.

M.Tadjibayev "Ilmiy-ommabop matnlarda stilistik figuralar tarjimasining o'ziga xos jihatlari"<sup>146</sup> nomli maqolasida ilmiy-ommabop matnlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyat rivojida tutgan o'rni, stilistik figura tushunchasi, ilmiy-ommabop matnlarda stilistik figuralarini qo'llanilish zarurati haqida so'z yuritilgan. Lekin yurtimizda oliy ta'lim jarayonida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini rivojlantrish bo'yicha tadqiqotlar nisbatan yangi bo'lib, bu sohada ilmiy izlanishlar olib borish, samarali metodlarni aniqlash, baholash mezonlarini takomillashtirish va turli auditoriyalarga moslashtirilgan matnlarni yaratish yo'naliшlarini rivojlantrish dolzarb ahamiyat kasb etad

<sup>144</sup> Nusratova H. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi kitobidagi ilmiy-ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. -Toshkent: 2023. - № 12.

<sup>145</sup> Norbekova F. Ilmiy-ommabop film matnining janr-stilisyik xususiyatlari // Ta'lim sifatini oshirishda tilshunoslik, xorijiy til va ababiyotini o'qitishning zamонавиј metodik yondashuvlari: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar. -Toshkent:2023. - 3-7 b.

<sup>146</sup> Tadjibayev M. Ilmiy-ommabop matnlarda stilistik figuralar tarjimasining o'ziga xos jihatlari // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. -Namangan, 2024.- 484-487 b.



Bunday tadqiqotlar nafaqat ilmiy bilimlarni keng ommaga yetkazishda muhim, balki ta'lif jarayonining sifatini oshirishda ham katta rol o'ynaydi.

Ilmiy-ommabop matn murakkab ilmiy tushunchalarni keng ommaga sodda, ravshan va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qiluvchi matn hisoblanadi. Bunday matn o'quvchining qiziqishini uyg'otib, ilmiy bilimlarni oson qabul qilishini xizmat qiladi. Ilmiy-ommabop matnga qo'yilgan talabalarni olimlar har xil tasnif qilgan bo'lib, ular orasida eng ko'zga ko'ringanlari sifatida ilmiy-ommabop matnning mazmuni, uslubi va kommunikativ xususiyatlariga asoslangan yondashuvlarni ajratish mumkin. Mazmun nuqtai nazaridan, matn ilmiy haqiqatlarni aniq va to'liq ifodalashi, o'quvchiga yangi bilimlarni yetkazishi, shuningdek, mavzuning dolzarbligini ta'kidlab, uni keng jamoatchilikka tushunarli tarzda yetkazishi talab etiladi. Uslubiy jihatdan esa matn sodda, ravshan va o'quvchini charchatmaydigan uslubda yozilishi lozim, murakkab atamalar va tushunchalar esa oddiy tilda izohlanadi. Kommunikativ xususiyatlar :rasida esa matn o'quvchi bilan samarali muloqot o'rnatishi, uning qiziqishini uyg'otishi va ilmiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi muhimdir. Shuningdek, olimlar ilmiy-ommabop matnda emotsiyal va obrazli ifodalarning muvozanatlari qo'llanilishi, faktlarga asoslangan aniq va ishonchli ma'lumotlarning taqdim etilishi zarurligini ta'kidlaydilar.

Bu yondashuvlar ilmiy-ommabop matnning nafaqat ma'lumot beruvchi, balki ta'sirchan va o'quvchini o'z fikrini shakllantirishga undaydigan vosita sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada, talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida mazmun, uslub va kommunikativlikni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Su sababdan ilmiy-ommabop matnning barchaga tushunarli bo'lishi uchun bir qator muhim talablar mavjud. Xususan,

1) *aniqlik va ravshanlik*. Bunda ilmiy-ommabop matn o'quvchiga mavzuni aniq va tushunarli tarzda yetkazishi kerak. Matnda noaniqlik, keraksiz so'zlar yoki noto'g'ri gap tuzilmalari bo'lmasligi kerak. So'zlar va ifodalar mantiqan bog'langan holda, matn mazmuni oson tushuniladigan shaklda taqdim etilishi lozim;

2) *ilmiy-ommabop matn ayaratishda talabalar auditorysini hisobga olish*. Bu jarayonda matn keng :radagi talabalar uchun mo'ljallanganligi hamda ularning bilim darajasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda yozilishi zarur. Bu yondashuv matnning tushunarligini oshirib, talabalarni faol ishtirok etishga undaydi;

3) *emotsionallik va obrazlilik*. Ilmiy-ommabop matn ilmiy va badiiy uslublarning uyg'unlashgan shaklida bo'lib, unda kognitiv mazmun va aniqlik saqlanadi. Shu bilan birga, matn o'quvchining diqqatini tortadigan ifoda vositalari orqali yanada jonlantiriladi, bu esa murakkab ilmiy tushunchalarni oson va qiziqarli tarzda yetkazishga yordam beradi. Matnga jonlilik bag'ishlash maqsadida hissiy ifodalar va tasviriy vositalardan foydalanish mumkin. Biroq, bunday elementlar ilmiy faktlarning aniqligi va ishonchlilikiga zarar yetkazmasligi, ularning asosiy mazmuniga ta'sir qilmasligi kerak. Shu tariqa,



matn nafaqat ma'lumotlarga boy, balki o'quvchining e'tiborini jalg qiluvchi va o'quvchilarni mavzuga yanada chuqurroq kirishlariga sababchi bo'ladi;

4) **kommunikativlik.** Matn uni o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi zarur, shuningdek, ularning e'tiborini muhim faktlar va asosiy xulosalarga yo'naltirishi lozim. Bu orqali o'quvchi bilan samarali muloqot o'rnatilib, mavzu bo'yicha chuqurroq tushuncha hosil qilinadi va bilim olish jarayoni yanada samarali kechadi;

5) **soddalashtirish va moslashtirish.** Ilmiy ma'lumotlarni har qanday yosh va bilim darajasidagi o'quvchilar uchun moslashtirish, murakkab tushunchalarni sodda qilib yetkazish talab qilinadi.

Ilmiy-ommabop matnda yuqorida keltirilgan talablarga amal qilinganda uning o'quvchi tomonidan anglanish jarayoni oson kechadi. Ilmiy-ommabop matnning mazkur xususiyatlarni o'zlashtirish talabalarga ilmiy-ommabop mantn mohiyatini chuqur anglashga yordam beradi. Ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasi bu murakkab ilmiy ma'lumotlarni keng ommaga tushunarli, soddalashtirilgan va qiziqarli shaklda yetkazish mahoratidir. Bu ko'nikma ilmiy kommunikatsiyaning muhim qismi bo'lib, talabalarni nafaqat o'z sohasidagi bilimlarni aniq ifodalashga, balki ularni keng auditoriyaga moslashtirishga o'rgatadi. Mazkur ko'nikma talabalarga mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida, shuningdek, jamiyatda ilmiy bilimlarning samarali tarqalishida muhim ahamiyatga ega. Masalan, ilmiy-ommabop matnlar orqali talabalar ilmiy loyihalarda faol ishtirok etish va ilmiy faoliyatlarini ommalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Quyidagi bosqichlardan foydalangan holda talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish jarayonini amalga oshirish mumkin:

**1. Bilim va tajribani aniqlash:** talabalar mavzu bo'yicha ilgari egallagan bilimlari va tayyorgarlik darajasini aniqlash jarayoni. Bu orqali ularning mavzuga tayyorligi va bilim darjasini aniqlanib, o'quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin bo'ladi.

**2. So'z boyligini oshirish:** murakkab atamalarni sodda va tushunarli tarzda izohlash hamda turli uslubiy vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish maqsad qilinadi. Bu yondashuv matnni yanada boy va ifodali qiladi.

**3. Reja tuzish:** matnning mantiqiy tuzilishini ta'minlash maqsadida batafsil va tizimli reja ishlab chiqiladi. Bu reja matnning har bir qismi o'z o'rnila bo'lishini va umumiy mazmun yaxlitligini ta'minlaydi.

**4. Matnni qayta o'qish va tahlil qilish:** matn mazmunini yanada chuqurroq tushunish va uning asosiy g'oyalarini aniqlash uchun matnni bir necha bor diqqat bilan o'qish hamda tahlil qilish jarayoni amalga oshiriladi. Bu bosqich matnning mantiqiy bog'liqligini va ifoda aniqligini ta'minlashga yordam beradi.

**5. Qayta hikoyalash va yozma ifoda:** olingan bilimlarni mustahkamlash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida matn mazmunini



o'z so'zlarining bilan qayta ifodalash va yozma tarzda bayon etish jarayoni amalga oshiriladi.

**6. Xulosa chiqarish va umumlashtirish:** mavzuni tizimli tarzda tartibga solish va asosiy fikrlarni birlashtirish orqali tahliliy fikrlash qobiliyatini mustahkamlash jarayoni. Bu bosqich o'quvchilarga olingan ma'lumotlarni yaxlit ko'rinishda anglash va amaliy qo'llash imkonini beradi.

Kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishda samarali metodlarni aniqlash, baholash mezonlarini takomillashtirish va turli auditoriyalarga moslashtirilgan matnlarni yaratish yo'nalishlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Bu nafaqat ilmiy bilimlarni keng ommaga yetkazishda, balki ta'lim jarayonining sifatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu tariqa, ilmiy-ommabop matnlarning kommunikativligi va ta'sirchanligi yanada kuchayadi, o'quvchilarning ilmiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Norbekova F. Ilmiy-ommabop film matnining janr-stilisyik xususiyatlari // Ta'lim sifatini oshirishda tilshunoslik, xorijiy til va ababiyotini o'qitishning zamonaviy metodik yondashuvlari: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar. – Toshkent, 2023. –370 b.
2. Nusratova H. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi kitobidagi ilmiy-ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. –Toshkent: 2023. –№ 12.
3. Tadjibayev M. Ilmiy-ommabop matnlar va ularning ilmni ommalashtirishdagi ahamiyati // Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos. – Namangan, 2023. –456 b.
4. Tadjibayev M. Ilmiy-ommabop matnlarda stilistik figuralar tarjimasining o'ziga xos jihatlari // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. – Namangan, 2024. –487 b.

## TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI

**Seytaliyeva Nodiraxon**  
*nodirabegim9907@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy tillarning rivojlanish yo'llari, ularning o'zaro munosabati, davrlar kesimida shakllanishi, xalqaro maydondagi o'rni, turkiy tillarni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar, yangi pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** turkiy tillar, lingvodidaktika, o'qitish texnologiyalari, zamonaviy yondashuvlar, metodika, tillararo integratsiya.

**Abstract:** This article discusses the development paths of Turkic languages, their interrelationships, their formation over time, their place in the international arena, modern approaches to teaching Turkic languages, new pedagogical technologies, and their importance in the educational process.



Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. <i>ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvahob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIJ TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSALARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSALARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSALARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'iy INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

